

## PLASTIK JARROHLIK AMALIYOTI

Nuriddinov Ziyovuddin

Turg'unov Abdulatif

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

2-son davolash fakulteti 226-b guruh talabasi

**Annotatsiya:** Plastik jarrohlik zamonaviy tibbiyotning tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, u inson tanasining tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarini bartaraf etish, shuningdek estetik ko'rinishni yaxshilashga qaratilgan jarrohlik amaliyotlarini o'z ichiga oladi. Ushbu soha rekonstruktiv va estetik jarrohlikka bo'linib, rekonstruktiv yo'nalish asosan jarohatlar, kuyishlar, tug'ma nuqsonlar va kasalliklardan keyingi tiklash ishlarini amalga oshiradi. Estetik jarrohlik esa tashqi ko'rinishni yaxshilash, yuz va tana proporsiyalarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Plastik jarrohlikda zamonaviy texnologiyalar, mikrojarrohlik usullari va innovatsion materiallardan foydalanish operatsiyalar samaradorligini oshirmoqda. Ushbu maqolada plastik jarrohlikning rivojlanishi, asosiy yo'nalishlari hamda uning tibbiyotdagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** plastik jarrohlik, estetik jarrohlik, rekonstruktiv jarrohlik, mikrojarrohlik, kosmetik operatsiya, tug'ma nuqsonlar, yuz-jag' jarrohligi, estetik tibbiyot, tiklovchi jarrohlik.

## ПЛАСТИЧЕСКАЯ ХИРУРГИЯ

**Аннотация:** Пластическая хирургия является одной из быстро развивающихся областей современной медицины, направленной на устранение врождённых и приобретённых дефектов тела человека, а также на улучшение эстетического внешнего вида. Данная область делится на реконструктивную и эстетическую хирургию. Реконструктивная хирургия занимается восстановлением тканей после травм, ожогов, заболеваний и врождённых аномалий, тогда как эстетическая хирургия направлена на улучшение внешности и гармонизацию пропорций лица и тела. В пластической хирургии широко применяются современные технологии, методы микрохирургии и инновационные материалы, что повышает эффективность операций. В данной статье рассматриваются развитие пластической хирургии, её основные направления и значение в современной медицине.

**Ключевые слова:** пластическая хирургия, эстетическая хирургия, реконструктивная хирургия, микрохирургия, косметическая операция, врождённые дефекты, челюстно-лицевая хирургия, эстетическая медицина, восстановительная хирургия.

## PLASTIC SURGERY

**Abstract:** Plastic surgery is one of the rapidly developing fields of modern medicine aimed at correcting congenital and acquired defects of the human body, as well as improving aesthetic appearance. This field is divided into reconstructive and aesthetic surgery. Reconstructive surgery focuses on restoring tissues after injuries, burns, diseases, and congenital anomalies, while aesthetic surgery aims to enhance appearance and harmonize facial and body proportions. Modern technologies, microsurgical techniques, and innovative

materials are widely used in plastic surgery, increasing the effectiveness of operations. This article discusses the development of plastic surgery, its main directions, and its importance in modern medicine.

**Keywords:** plastic surgery, aesthetic surgery, reconstructive surgery, microsurgery, cosmetic surgery, congenital defects, maxillofacial surgery, aesthetic medicine, reconstructive treatment.

Texnologiyalarning shiddatli rivoji bugungi kun tibbiyotini ham chetlab o'tgani yo'q. Estetik tibbiyot sohasidagi so'nggi uskunalar bunga yaqqol misol. Insonning tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarni bartaraf etish va uni go'zal va mukammal qiyofaga keltirishda so'nggi yillarda samarali usullardan foydalanilmoqda. Plastik jarrohlik, yuz terisini yoshartirish uchun qo'llanilayotgan mexanik va kimyoviy pilinglar, ineksiya orqali va lazer texnologiyasi yordamida inson tanasi yuzasidagi kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Plastik jarrohlik tug'ma va hayotda orttirilgan nuqson va kamchiliklarni to'g'rilash, organizmdagi shikastlangan biror a'zoning shakli va funksiyasini qayta tiklash maqsadida qo'llaniladi[1].

Yunonchadan tarjima qilinganda, «Plastikos» — «shakl yaratish» degan ma'noni anglatadi, lotinchada «plastikus» — «shakllantiruvchi» degani. Ushbu so'zlar plastik jarrohlarning nima qilishini eng yaxshi tarzda ifodalab beradi. Tibbiyot tarixi mobaynida inson qiyofasini tiklash bo'yicha amaliyotlar amalga oshirilmagan hech qanday davr bo'lmagan. Qadimgi Arabistonda ham plastik xirurgiyaning yaxshi taraqqiy etganligidan darak beruvchi manbalar bor. Chunonchi, Nil daryosi qirg'oqlaridan topilgan papiruslarda shikastlangan burun shaklini tiklashga bog'liq jarrohlik ishlari bajarilganligi to'g'risida talaygina ma'lumotlar keltirilgan. Misr jarrohlari qo'l-oyog'i singan, chiqqan bemorlarni davolaganlar, quloq, tirtiqlarini operatsiya yo'li bilan tuzatganlar, arab mo'miyolari (balzamlash yo'li bilan chirishdan saqlangan murda)da su n'iy tishlar qoldiqlari topilganligi diqqatga sazovordir [2].

XVII asrga qadar Hindiston jarrohligining yutuqlari yevropaliklarga qaraganda ustunroq edi. Yevropada bunday operatsiyalarning faqat alohida holatlari aniqlangan. Milodiy 7 asrda Iskandariyada Paulos Ayjinskiy juda katta bo'lgan erkak ko'kragini kichraytirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshirgan. Bunday kasallik ginekomastiya deb nom olgan. Erkaklar ko'krak hajmini kichaytirish bo'yicha operatsiyalar zamonaviy jarrohlikda ham o'tkaziladi. Ortiqcha vazndan xalos etish uchun zamonaviy plastik jarrohlar liposaktsiya usulidan foydalanadilar. Biroq, milodiy I asrdayoq semizlik bilan kurashishning mazkur usuli jarrohlarning saqlanib qolgan yozuvlarida ta'rilangan. Uyg'onish davrida plastik jarrohlik mustaqil tibbiyot sohasi bo'lib, unga «go'zallik jarrohligi» deb nom berilgandi. Bizgacha Italiyalik Gaspar Talyacotszining 1597-yilgi shikastlangan burunni yelkadan olinadigan to'qimalar bo'laklari yordamida qayta tiklash bo'yicha traktati yetib kelgan. Talyakotszi burunni qayta tiklash uchun o'z texnikasini ishlab chiqdi va bu borada muvaffaqiyatli operatsiyalar o'tkazdi, shu sababli zamonaviy jarrohlar unga plastik jarrohlikning asoschisi maqomini bergan. Biroq, uning zamondoshlari birinchi iste'dodli plastik jarrohning yutuqlarini qadrlashmadi. Uning harakatlarini jinoyatchilik deb hisoblab, uni nopok (diniy nuqtai nazardan) hududga dafn etishgan, o'sha davrlarda bunday joylarga yovuzlarni va o'z joniga qasd qilganlarni dafn etish qabul qilingan edi [3].

Zamonaviy plastik jarrohlik asoslari XIX asrning boshlarida, jarrohlar inson tashqi ko'rinishini o'zgartirish uchun yanada ilg'or vositalar va usullarni ishlab chiqqach (antiseptik vositalarning paydo bo'lishi va tarqalishi teri, tog'ay va boshqa to'qimalarni transplantatsiya qilish imkonini berdi) qo'yilgan edi. 1920-yillarning o'rtalariga kelib, birinchi jahon urushidan keyin, Yevropada ko'pgina yaralangan insonlar paydo bo'ldi, ular o'z kamchiliklariga ko'nishni istamadi va jarrohlarga nafaqat tananing u yoki bu zarar ko'rgan qismi vazifasini tiklash bilan emas, balki tashqi qiyofasini ham yaxshilashni so'rab murojaat qildi. Plastik jarrohlar to'qima transplantatsiyasi, mikrotomirlar, yuz-jag' jarrohligi va lipektomiya bo'yicha yuzlab innovatsion usullarni ishlab chiqishda kashshof bo'lib xizmat qildi. Plastik va rekonstruktiv jarrohlikning kashfiyotchilari va asoschilaridan biri taniqli arman-amerika xirurgi Varazdat Gazandyan hisoblanadi. 1950-yillarda, ikkinchi jahon urushidan keyin terining transplantatsiyasi texnikasining yanada takomillashishi va yangi anesteziyaning sifati (mahalliy og'riqsizlantirish ostida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati) plastik jarrohlikni yanada xavfsizroq qildi va shuning uchun u yanada keng tarqaldi[3].

**Plastik operatsiya** - kishi organizmidagi shikastlangan biror a'zoning shakli va funksiyasini qayta tiklash, tug'ma va hayotda orttirilgan nuqson, kamchiliklarni to'g'rilash. Plastik xirurgiyada to'qimalarning joyi o'zgartiriladi, bemor gavdasining boshqa qismidan olingan to'qimalar ko'chirib o'tkaziladi (autoplastika, autotransplantatsiya); bemorga boshqa odamdan (allograft) yoki hayvondan olingan to'qimalar ko'chirib o'tkaziladi; bemor to'qimalariga, organizmiga yot, biroq unga beziyon materiallar (metall, plastmassa, sintetik tola va boshqalar)dan yasalgan turli narsalar singdiriladi (implantatsiya). Plastik xirurgiya yordamida bemor yuzidan tug'ma va orttirilgan nuqsonlar (lab tirtikligi, burun yo'qdig'i, tortib turadigan chandiqlar) bartaraf etiladi. Terini ko'chirib o'tkazish bilan amalga oshiriladigan Plastik xirurgiyak kuyganda, kosmetik maqsadlarda yuzdagi ajinlar, teri burmalari, o'smalar va boshqalarni yo'qotishda keng qo'llanadi. Suyak Plastik xirurgiyasi suyaklarning turli deformatsiyalarida, soxta bo'g'imda, umurtqa pog'onasi kasalliklarida o'tkaziladi. Bemorning o'z to'qimasidan foydalanilsa, ko'chirib o'tkazish ayniqsa muvaffaqiyatli chiqadi. Ko'chirib o'tkazishda bemorning asli suyagi ma'lum vaqtdan so'ng so'rilib ketadi, biroq yangi suyak to'qimasining o'sib chiqishiga asos bo'ladi. Plastik jarrohlik ikkita asosiy turga bo'linadi — rekonstruktiv va estetik.

*Rekonstruktiv* plastik jarrohlik deformatsiyalarni, to'qima va a'zolarida nuqsonlarni bartaraf etishga va ularning vazifalarini plastik jarrohlik usullari bilan tiklashga yordam beradi. Bunday operatsiyalar jarohat, kasallik tufayli tan jarohati olgan yoki tug'ma nuqsonlari bo'lgan shaxslarda amalga oshiriladi. Muvaffaqiyatli rekonstruktiv jarrohlik insonning hayot sifatini tubdan o'zgartirishi, uning to'laqonli hayotni tuyishini tiklashga yordam berishi, shuningdek, ochiq-oydin genetik nuqsonlarni potentsial turmush o'rtog'idan yashirishga yordam beradi.

*Estetik plastik jarrohlik* — tashqi ko'rinishini yaxshilash maqsadida plastik jarrohlik usullarini qo'llashdir. Bu kabi amaliyotlar nafaqat odamlar yoshligini uzaytiradi va o'z ularga go'zalliklarini his qilishga yordam beradi, balki ular o'zlarida haqiqiy yoki tasavvuridagi nomukammalliklar mavjud deb hisoblashi tufayli yuzaga keladigan emotsional stressni bartaraf qiladi va shu bilan birga hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Estetik plastik jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi sohasiga muvofiq ravishda tasniflanishi mumkin:

- ✓ Yuzni yoshartirish (ritidektomiya, feyslifting);
- ✓ Qosh va peshtonani torttirish (frontlifting);

- ✓ Qovoqlar plastikasi (blefaroplastika);
- ✓ Burun plastikasi (rinoplastika, septoplastika);
- ✓ Quloq suprasi plastikasi (otoplastika);
- ✓ Lablar plastikasi (xeyloplastika);
- ✓ Soch ko'chirib o'tkazish;
- ✓ Iyak plastikasi (mentoplastika, mandibuloplastika yoki genenioplastika);
- ✓ Yonoqlar plastikasi (malyarplastika);
- ✓ Bo'yin va iyak sohasi plastikasi (servikoplastika);
- ✓ Ko'krak plastikasi (mammoplastika);
- ✓ Qorin plastikasi (abdominoplastika, liposaktsiya);
- ✓ Dumbalar plastikasi (glyuteoplastika);
- ✓ Qo'llarning plastikasi (braxioplastika);
- ✓ Kichik boldir va sonning ichki yuzasi plastikasi (kruroplastika va femurplastika);
- ✓ Kichik va katta jinsiy lablar plastikasi (labioplastika);
- ✓ Qin plastikasi (vaginoplastika);
- ✓ Bo'yin plastikasi (plastizmoplastika);
- ✓ Ozishdan so'ng terini torttirish (pannikulektomiya, torsoplastika);
- ✓ Kombinativ plastika (ikki yoki undan ortiq joylar)[3];

Plastik jarrohlik amaliyoti oldidan bemorlar bilan batafsil konsultatsiya o'tkaziladi.

Bu jarayon davomida bemorning maqsadlari, xavflari va ehtimoliy natijalar muhokama qilinadi. Har qanday jarrohlik kabi, plastik jarrohlik ham xavflarga ega, jumladan:

- Infeksiya: Jarrohlik joyida bakterial infeksiya rivojlanishi mumkin.
- Qon ketishi: Amaliyot davomida yoki undan keyin qon ketishi xavfi mavjud.
- Anesteziya bilan bog'liq muammolar: Anesteziya paytida yoki keyin turli xil noxush holatlar yuz berishi mumkin.
- Natijadan qoniqmaslik[4].

Plastik jarrohlik zamonaviy tibbiyotning eng muhim va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi inson tanasidagi tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarni bartaraf etish, shikastlangan to'qimalarni tiklash hamda estetik jihatdan tashqi ko'rinishni yaxshilashdan iboratdir. Bugungi kunda plastik jarrohlik nafaqat tibbiy zarurat, balki insonning psixologik holati va ijtimoiy hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim soha sifatida qaralmoqda.

Ushbu yo'nalishning rivojlanishi zamonaviy texnologiyalar, mikrojarrohlik usullari va innovatsion materiallarning keng qo'llanilishi bilan bevosita bog'liq. Natijada operatsiyalar xavfsizligi va samaradorligi oshib, bemorlarning tiklanish jarayoni sezilarli darajada yaxshilandi. Ayniqsa, rekonstruktiv jarrohlik sohasidagi yutuqlar og'ir jarohatlar, kuyishlar va tug'ma nuqsonlarga ega bemorlar hayot sifatini tiklashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Estetik jarrohlik esa insonning o'z tashqi ko'rinishidan qoniqishini oshirish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va jamiyatda o'zini erkin his qilishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda tibbiy etika va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, plastik jarrohlik nafaqat tashqi ko'rinishni o'zgartirish, balki insonning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan kompleks tibbiy soha hisoblanadi. Uning

kelajakdagi rivoji yanada ilg'or texnologiyalar va ilmiy yutuqlar bilan boyib, tibbiyotda yanada muhim o'rin egallashi kutilmoqda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Subotyalov MA. Traditional Ayurvedic Medicine: sources, history and place in modern healthcare: specialty 07.00.10 «History of science and technology»: dissertation's abstract for the degree of Doctor of Medical Sciences. Moscow, 2014. 50 p. (In Russian)
2. ISBN 978-9943-08-238-0 © O'.O.Oripov , Sh.N.Karimov «Umumiy xirurgiya». «Yangi asr avlodi»,2008-yil.
3. [mymedic.uz](http://mymedic.uz)
4. PLASTIK JARROHLIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI Sulaymanova Mohigul Izatillayevna